

INGILIZ TILINI O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA O`QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO`LLARI

Meligaliyeva Yulduz Abdimalikovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo`nalishi talabasi

Email: meligaliyevayulduz075@gmail.com

Tel : +998901252310

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o`qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz

+998915107420

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lism maktablarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrashi, nutqiy teranliklari, hozirjavobliklari, til o'rganishga bo'lgan ishtiyobi, darslarda faol qatnashishlari uchun o'qituvchi-muallimlar tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Innovatsiya, grammatik struktura, leksik birlik, fonetik o'zgarishlar, boshlang'ich ta'lim.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tlini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lism maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lism maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli barcha sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davlarlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakillanadi. Bunda

o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda. Til o'rgatishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi. Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. Harmerning ta'kidlashicha, suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab- bu talaffuz. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, ma'ruzachi talaffuzi notog'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda. Native speakerlar agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkin. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'ribor talaffuzga qaratiladi. Bunda native speakerlarning turli xil audiolaridan faydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchi dars davomida harflar, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishi kerak. Shunungdek boshlang'ich bosqichda og'zaki nutqqa va o'qish texnikasini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bunda chet tilini o'qitishning nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni o'rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- a} O'qish mexanizmini hosil qilish :
- b} Og'zaki o'qish texnikasini o'stirish:
- c} O'qiganini tushunishga o'rgatish¹:

Asosiy qism. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatsa, "Innovatsiya" tushunchasi esa muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat deb, tushuniladi. Bundan tashqari, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovation" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi".

¹ Bekmurodova U. B., "Ingiliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish " mavzusida referat . Toshkent – 2012 yil .

Biz yuqorilardan kelib chiqqan holda, zamonaviy ta'limda ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning vositasi sifatida ta'lim veb-resurslarini qo'llashni tavsiya beramiz. Bu innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta'limning bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda turli shakllarida qo'llaniladi, masalan: auditoriyada ishslash; mustaqil ishslash; masofaviy ta'lim jarayonida ishslash kabi elementlarini o'z ichiga oladi. Bunday o'qitish usuli o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalarini to'g'ri baholashga yordam beradi, o'qitishning yangi, innovatsion shakl va usullarini izlashga undaydi, ijodkorlikni rivojlantiradi. Shunga ko'ra, ta'lim veb-resurslarining samarali formatlari olimlar G.S. Sabirova, A.A.Dragunova, Yu.M. Orexova, P.V. Sisoev, Tom March, Berni Dodge tomonidan chu'qur o'rganilgan. Ular quyidagi veb-resurslarining turlarini ajratib bergen: Hotlist, Multimedia Scrapbook, Treasure Hunt, Subject Sampler, Web-Quest. Bular quyidagi ma'nolarni anglatadi va har bir resurs turi o'zining qat'iy tuzilishiga ega, ya'ni: Xotlist (Hotlist) – "Havolalar ro'yxati": mavzu bo'yicha izohli matn shaklidagi Internet-resurslarning ro'yxati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o'rgatish ko'proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u o'z-o'zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko'nikmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir. Shunga amin holda o'qituvchilar eng ilg'or yondoshuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtirishi va o'z ishlarida foydalangan holda ta'lim tizimida sezilarli o'sishga erishish mumkin. Ko'plab tashkilotlar axborotni jo'natish va olish uchun multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi darajaga o'tmoqda. Kompyuterlar va boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e'tibor berilishi kerak. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilib, pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda o`qituvchi o`rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi. Bundan tashqari, o`quvchilar tomonidan o`quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlaydi. o`quvchlarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Hamda o`quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g`oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur. Til portfeli

texnologiyasida chet tilini bilish darajasini baholashning asosiy mezonlari sinov hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ustuvor yo'nalishi ta'lif jarayoni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodova U. B, “ Ingiliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ” mavzusida referat . Toshkent – 2012 yil .
2. Otaboyeva, M. R. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. R. Otaboyeva. — Tekst: neposredstvenniy, elektronniy // Molodoy ucheniy. — 2017. — № 4.2 (138.2). — S. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (data obrasheniya: 27.04.2020)
3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O‘QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomiagi TDPU,2005
5. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
6. Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son)Xalq so‘zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
7. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
8. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001